

Ona zaminimiz ulkan milliy boyligimiz

2021-yil 21-aprel kuni Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakultetida O'zbekiston Ekologik partiyasi bilan hamkorlikda "22 aprel Butunjahon yer kuni"ga bag'ishlangan "Ona zaminimiz ulkan milliy boyligimiz" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi. O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi vakillari, Ekologiya va suv resurslarini boshqarish kafedrasini professor-o'qituvchilari, Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabalarini ishtirok etishdi.



Tarbiya ishtirokchilariga qiziqarli ma'ruzalar qilindi. O'zbekiston Ekologik partiyasi to'g'risida qisqacha ma'lumotlar berildi. Fakultet talabalaridan 9 nafari shu partiya a'zo bo'lganligini munosabati bilan ularga partiya biletleri topshirildi. Tadbirda O'zbekiston Ekologik partiya bilan fakultetimizning kelgusida hamkorlik qilishi bo'yicha fikrlar bildirildi. Talabalarimizni o'qishni tugatgandan keyin o'z yo'nalishi bo'yicha ishga joylashish masalalari qiziqirdi. Bu masala yuzasidan partiya qonunlarga, qonun osti hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritishga xarakat qilinayotganini ta'kidlashdi.

TIQXMMI matbuot xizmati

